

A. Anagramma

Alisa kriptografiyani o'qiyotganida juda foydali bo'lgan anagramma haqida o'qib qoldi. Ikkita satr anagramma deyiladi, qachonki, bu satrlarning uzunliklari bir xil va bunda ishlatilgan harflar bir xil bo'lsa. Misol uchun "bacdc" va "dcbac" satrlar anagramma, "bacdc" va "dcbad" esa anagramma emas.

Alisa anagrammalarni o'rgangach uni quyidagi masala qiziqtirib qoldi:

2 ta uzunligi 100000 dan oshmaydigan A va B satrlari berilgan. Shu ikkala satrdan qandaydir belgilarni o'chirgan holda ikkala satrni anagramma holatiga keltirish kerak va hosil bo'lgan anagrammalar uzunligi eng katta bo'lsin. Alisa shu shartni bajaradigan holda masalani ishlash uchun nechta belgini o'chirishi kerakligini bilmoqchi.

Alisa biladiki bunday kata satrlarni ko'rib chiqish uchun u juda ko'p vaqt sarflaydi, buni kompyuter orqali bajarsa vaqtdan ancha yutadi. Baxtga qarshi Alisa dasturlash tillarini o'rganmagan, shuning uchun u siz dasturchilardan iltimos qilyapti.

Kiruvchi ma'lumotlar

Ikkita qatorda kichik lotin harflaridan iborat A va B satrlari kiritiladi ($1 \leq A.length$, $B.length \leq 100000$)

Chiquvchi ma'lumotlar

Alisa ikkala satrni anagramma holiga keltirish uchun eng kamida nechta belgini o'chirishi kerakligini toping.

Misol:

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
cde abc	4

B. Child of String

Uzunligi bir xil bo'lgan ikkita a va b satr berilgan, uzunligi maksimum bo'lgan shunday S satr topingki, S ikkala satrning ham farzandi bo'lsin.

x satri y satrning farzandi deyiladi, qachonki, y satrning nol yoki undan ko'p bo'lgan belgilarni o'chirishdan so'ng x satri hosil bo'lsa.

Misol uchun, "abcd" va "abdc" satrlarning uzunligi maksimal bo'lgan ikkita farzandi "abc" va "abd" bor.

Kiruvchi ma'lumotlar

Ikkita qatorda katta lotin harflaridan iborat bo'lgan, uzunliklari 5000 dan oshmaydigan ikkita satr beriladi.

Chiquvchi ma'lumotlar

S satrining maksimal uzunligini chiqaring

Misol:

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
HARRY SALLY	2
ALI VALI	3

C. Game of Thrones

Dotrak lar qirol Robert ning taxtini egallash uchun hujum rejasini tuzishdi.



Qirol Robert bu fitna haqida Raven dan eshitdi va uning qirolligiga dushmanlar kirishi mumkin bo'lgan yagona eshikni berkitish rejasini tuzdi.

Ammo bu eshikni berkitish uchun unga berilgan satrning anagrammasi bo'lgan va palindrom bo'lgan satrni topishi kerak bo'ladi.

Qirol Robert da kichik lotin harflaridan iborat satr bor. Unga shu satrning anagrammasi bo'lgan ixtiyoriy palindrom so'z bor yoki yo'qligini aniqlashda yordam bering.

Kiruvchi ma'lumotlar

Bitta qatorda kichik lotin harflarida iborat bo'lgan A satr berilgan ($1 \leq A.length \leq 100000$)

Chiquvchi ma'lumotlar

Agar qirol Robert ga kerak bo'lgan satr mavjud bo'lsa "YES" aks holda "NO" so'zini chiqaring. (Qo'shtirnoqsiz)

Misol:

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
aaabbbb	YES
abab	YES
abcc	NO

D. Sonlar o'yini

Uzunligi N ga teng bo'lgan massiv berilgan. Siz Q ta so'rovning javoblari summasini toping. Har bir so'rov 1 ta x sonidan iborat. Har bir so'rovda siz massivning barcha elementiga x ni qo'shasiz, so'ngra massivning barcha elementlarining modulini summasini topasiz.

Kiruvchi ma'lumotlar

Birinchi qatorda N , massiv elementlari soni.

Ikkinchi qatorda N ta sondan iborat bo'lgan massiv elementlari probel bilan ajratilgan holda.

Uchinchi qatorda Q , so'rovlar soni.

To'rtinchi qatorda Q ta sondan iborat bo'lgan so'rovlar probel bilan ajratilgan holda.

$1 \leq N, Q \leq 200000$

$-2000 \leq$ massiv elementlari, so'rovlar ≤ 2000

Chiquvchi ma'lumotlar

Barcha so'rovlarning summasini chiqaring.

Misol:

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
3 -1 2 -3 3 1 -2 3	18

E. Isfandiyor paxtada

TATU talabalari paxta dalasiga xirmonga o'z xissalarini qo'shish uchun borishdi. Paxta dalasi NxM o'lchamda. Isfandiyor ilg'or paxtakorlardan. Tushlik yaqinlashib qolgani sababli uning qorni juda ochdi. U birinchi bo'lib tushlikka bormoqchi. Yo'lda esa paxtakorlar va paxta uyumlari bor. U ilg'or paxtakorlardan bo'lganligi sababli paxtani bosib o'tolmaydi. Shuning uchun u paxtakorning yonidan uzr so'rab o'tadi. Ulardan uzr so'rashni yomon ko'radi. Bundan tashqari yo'lda to'siqlar ham bor. U tushlikka eng kam paxtakorlardan uzr so'rab bormoqchi. Unga yordam bering. Paxta dalasi NxM ko'rinishidagi jadval orqali beriladi. Isfandiyor kordinatasi "S" harfi bilan, tushlik joyi "E" harfi bilan, to'siqlar esa "T" harfi bilan beriladi. Jadvalda yana 0 dan 9 gacha raqamlar bor, bu shu kordinatadagi paxtakordan uzr so'rashlar sonini bildiradi. Isfandiyor tepaga, pastga, o'ngga va chapga harakatlanishi mumkin.

Kiruvchi ma'lumotlar

Birinchi satrda n va m sonlari probel bilan, keying n ta qatorda m tadan simvol orqali jadval beriladi.

$$1 \leq N, M \leq 1000$$

Chiquvchi ma'lumotlar

Isfandiyorning eng kam uzr so'rashlar sonini chiqaring.

Misol:

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
5 7 000E0T3 T0TT0T0 010T0T0 2T0T0T0 0T0S000	3